

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
--	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'li

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrillovna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI	213-222
---	---------

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	223-233
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI: NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA").....	234-241
--	---------

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdammovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL VA TEVARAK-ATROF	242-246
---	---------

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI	247-251
---	---------

Temple Chimuany Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS IN CONCRETE	252-265
---	---------

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH SSENARIYLARI	266-271
--	---------

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI	272-277
---	---------

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	278-283
---	---------

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	284-289
--	---------

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI.....	290-294
--	---------

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH	295-300
---	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW**Received:** 16 December 2025**Accepted:** 1 January 2026**Published:** 15 January 2026*Article / Original Paper***LEGAL ISSUES OF ENSURING PUBLIC PARTICIPATION IN SOLUTION OF ENVIRONMENTAL ISSUES IN CITIES****Uzakova Guzal Sharipovna,**Professor of the Environmental Law Department
of Tashkent State University of Law,
Doctor in LawE-mail: guzalsharipovna@gmail.com<http://www.orcid.org/0000-0001-9357-3200>

Abstract. Today, the majority of the world's population lives in cities. Ensuring environmental sustainability in populated areas is critical to achieving the goals set out in the United Nations Sustainable Development Program. In addition, the rules set out in the new UN Urban Development Program (Habitat III) will play a key role in ensuring the sustainable development of cities. Given that the world's population lives mainly in anthropogenically changing regions, more precisely in populated areas, ensuring a comfortable environment for citizens is achieved through sustainable urban development. That is why today the work on greening of cities is given importance at the local, regional and even global levels. The participation of civil society institutions and the general public in this process takes several forms. In particular, the expansion of public participation in the approval of master plans for cities and other settlements is seen as an important tool in protecting the property and other rights of citizens. Institute of Civil Society in the Republic of Uzbekistan, based on long-standing historical traditions - "Citizens' Self-Government Bodies" to participate in environmental monitoring in urban areas, implementation of information policy in cities, close cooperation with the public, active partnership and cooperation with public authorities, environmental issues can participate in management activities aimed at the development of cities through solutions through urban planning.

Keywords: environmental issues, sustainable development, public control, environmental control, civil society institutions.

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI**Uzakova Go'zal Sharipovna,**Toshkent davlat yuridik universiteti
Ekologiya huquqi kafedrası professori,
yuridik fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Bugungi kunda dunyo aholisining aksariyati shaharlarda yashaydi. Aholi zich joylashgan hududlarda ekologik barqarorlikni ta'minlash Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish dasturida belgilangan maqsadlarga erishish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, BMTning yangi Shaharsozlik dasturida (Habitat III) belgilangan qoidalar shaharlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rolni o'ynaydi. Dunyo aholisi asosan antropogen o'zgargan hududlarda, aniqrog'i, aholi zich joylashgan hududlarda yashashini hisobga olsak, fuqarolar uchun qulay muhitni ta'minlash barqaror shaharsozlik orqali amalga oshiriladi. Shu sababli bugungi kunda shaharlarni ko'kalamzorlashtirish ishlariga mahalliy, mintaqaviy va hatto global miqyosda ahamiyat berilmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari va keng jamoatchilikning bu jarayonda ishtiroki bir necha shakllarda amalga oshiriladi. Xususan, shaharlar va boshqa aholi punktlarining bosh rejalarini tasdiqlashda jamoatchilik

ishtirokini kengaytirish fuqarolarning mulkiy va boshqa huquqlarini himoya qilishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida uzoq yillik tarixiy an'analarga asoslangan fuqarolik jamiyati instituti bo'lgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari – shahar hududlarida ekologik monitoringda, shaharlarda axborot siyosatini amalga oshirishda, jamoatchilik bilan yaqindan hamkorlikda, davlat hokimiyati organlari bilan faol sheriklik va hamkorlikda ishtirok etish, ekologik muammolarni hal qilishda shaharsozlik orqali yechimlar orqali shaharlarni rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv faoliyatida ishtirok etishi mumkin.

Kalit so'zlar: atrof muhit masalalari, barqaror rivojlanish, jamoatchilik nazorati, ekologik nazorat, fuqarolik jamiyati institutlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N12>

Bugungi kunda ekologik muammolar jamiyat taraqqiyotidagi eng dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, insonni o'rab turgan tabiiy muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanish, shaxsning ekologik huquqlarini kafolatlash, ekologik boshqaruv jarayonlarida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, shuningdek, shaharlar va boshqa aholi punktlarida aholining qulay yashash muhitini yaratish yuridik fan doirasidagi muhim yo'nalishlar sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida atrof muhit masalalarini hal etishda jamoatchilikning ishtirokini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 49-moddasida fuqarolarning ekologik huquqlari ham aks ettirildi. Mazkur huquqlar sirasiga fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqi, ekologik axborot olish huquqi, shaharsozlik hujjatlarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish huquqi kiritildi. Shuningdek, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 12-moddasida fuqarolar tabiatni muhofaza qilish bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida jamoatchilik nazoratining shakllari sifatida quyidagilardan belgilangan: davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar, davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o'rganish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish. "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunda esa, jamoat ekologik nazorati ekologik nazoratning bir turi sifatida belgilab qo'yildi. Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 8-oktyabrdagi 287-son qarori bilan tasdiqlangan "Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risida" Namunaviy Nizomda esa, mazkur nazoratni amalga oshirish tartibi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi qonuni 5-moddasida jamoatchilik ishtiroki qonunning muhim prinsiplaridan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, qonunda jamoat ekologik ekspertizasi ekologik ekspertizaning bir turi sifatida belgilangan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi"da ekologik ta'lim masalasiga ham alohida e'tibor qaratilib, ekologik madaniyat va ta'limni shakllantirish – fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etgan holda, aholining uzluksiz ekologik ta'limi kompleks tizimini tashkil etish, atrof muhit masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda aholining ishtirok etishi konsepsiyaning asosiy yondashuvlaridan biri sifatida belgilangan. Qolaversa, Bu borada

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. [1]

Milliy qonunchilikda atrof muhit masalalarining o'z ifodasini topishi ko'p jihatdan O'zbekiston Respublikasining xalqaro hujjatlarni tan olishi va ularni milliyalashtirishi bilan bog'liqdir.

Ta'kidlash joizki, BMTning Ming yillik deklaratsiyasida (2000) tabiatga hurmat bilan munosabatda bo'lishning ahamiyati ko'rsatilgan: "Barcha tirik organizmlar va tabiiy resurslarni muhofaza qilish va oqilona foydalanishning asosida barqaror rivojlanish tamoyillari yotadi. Faqat shu yo'l bilan avlodlarimiz uchun tabiat bizga bergan ulkan boylikni saqlab qolishimiz mumkin. Ishlab chiqarish va iste'mol qilishning hozirgi barqaror bo'lmagan shakllari kelajak farovonligi va avlodlarimizning farovonligi manfaatlariga muvofiq o'zgartirilishi kerak". [2]

Xalqaro hujjatlarda aholining barqaror rivojlanish va shaharsozlik muammolarini hal etishda ishtirok etishi tobora ko'proq aks etilmoqda. 2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi, harakatlar uchun qo'llanma sifatida 2030-yilga qadar "butun dunyo bo'ylab" odamlarga barqaror rivojlanish va tabiat bilan uyg'un turmush tarzi to'g'risida tegishli axborotlar va ma'lumotlarni ta'minlash vazifasini belgilab berdi. Shuningdek, Shaharlarni rivojlantirish bo'yicha yangi dastur (Habitat III) fuqarolarni jamoat hayotiga faol jalb qilish, shahar aholisi o'rtasida daxldorlik va mas'uliyat hissini shakllantirish, shuningdek, davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati o'rtasida shahar va hududiy siyosat masalalarida to'g'ridan-to'g'ri sheriklik va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 5-moddasida O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etishi shaharsozlik faoliyati amalga oshirilishida fuqarolarning qulay yashash va faoliyat ko'rsatish muhiti bilan ta'minlanish huquqining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga shaharsozlik faoliyatining asosiy talablaridan biri – shaharsozlik faoliyati sohasida qarorlarning muhokamasi va qabul qilinishida fuqarolar, jamoat birlashmalari ishtirok etishi uchun sharoitlarni ta'minlash hisoblanadi (Shaharsozlik kodeksining 6-moddasi).

Yuqoridagilardan tashqari, Shaharsozlik kodeksining 10-moddasida aynan fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarining shaharsozlik faoliyati sohasidagi qarorlarning muhokamasi va qabul qilinishidagi ishtiroki masalalari tartibga solingan. Unga ko'ra, fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari yashash va faoliyat ko'rsatish muhitining holati, taxmin qilinayotgan o'zgarishlari, aholi punktlarining bosh rejalari, uy-joy-fuqarolik obyektlarining qurilishi, rekonstruksiya, hududlarning obodonlashtirilishi, muhandislik va transport kommunikatsiyalarining o'tkazilishi to'g'risida o'z vaqtida va ishonchli, to'liq axborot olish hamda shaharsozlik faoliyati haqidagi o'zga axborotni olish huquqiga ega.

Fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarini shaharsozlik faoliyati to'g'risida xabardor qilish davlat organlari tomonidan ommaviy axborot vositalari orqali, shuningdek jamoat muhokamalari o'tkazish, ekspozitsiya va ko'rgazmalar tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari shaharsozlik hujjatlari tasdiqlangunga qadar ularni muhokama qilish, ularga takliflar kiritish va shaharsozlik faoliyati sohasidagi qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish huquqiga ega.

Davlat organlari fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalarining manfaatlariga daxldor, shaharsozlik faoliyati masalalariga taalluqli murojaatlarini o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqadilar va ularga belgilangan muddatlarda asosli javoblar taqdim qiladilar.

Fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari, basharti shaharsozlik faoliyati ularning manfaatlariga daxl etadigan bo'lsa, quyidagi huquqlarga ega:

shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda binolar, inshootlar va boshqa obyektlarning joylashtirilishi, loyihalashtirilishi, qurilishi, rekonstruksiya yoki foydalanishga topshirilishi to'g'risidagi qarorning ma'muriy yoki sud tartibida bekor qilinishini talab qilish;

korxonalar faoliyatini, shuningdek boshqa ko'chmas mulk obyektlaridan foydalanishni, basharti ularni ishlatish shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan holda amalga oshirilayotgan bo'lsa, ma'muriy yoki sud tartibida cheklash, to'xtatib turish yoki taqiqlashni talab qilish;

shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi munosabati bilan fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalari mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risida sudga da'vo taqdim qilish;

shaharsozlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishni talab qilish;

shaharsozlik hujjatlari tasdiqlangunga qadar o'z mablag'lari hisobidan ularning mustaqil ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etish.

Bizning fikrimizcha, fuqarolarning shaharsozlik sohasidagi qarorlarni qabul qilishda va ularning manfaatlarini ta'minlashda ishtirok etishining asosiy shakli jamoatchilik muhokamalari bo'lib, uning natijalari hududlarni rejalashtirishda, shaharsozlik rejalashtirishda va ba'zi hollarda hududlarni rejalashtirish va ajratishda hisobga olinishi lozim.

Jamoatchilik muhokamalarini o'tkazishning asosiy tamoyillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: jamoatchilik muhokamalarini o'tkazishning majburiyligi, hududiylik (har bir aholi punktida), ishtirok etish uchun teng imkoniyatlar, axborot mavjudligi, ochiqlik. Ushbu tamoyillarga asoslanib, xalq deputatlari Kengashlari tegishli hudud uchun jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilashlari maqsadga muvofiqdir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasining tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son Farmonida aholi punktlarining bosh rejalarini jamoatchilik muhokamasi natijalarini hisobga olgan holda tasdiqlash tartibi belgilanganligini alohida ta'kidlash lozim. Xususan, unga ko'ra, qurilish ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashning 4 ta bosqichini nazarda tutuvchi aholi punktlarining bosh rejalarini jamoat muhokamasiga qo'yishning yangi tartibi joriy etilgan. Bunda, 1-bosqichda fuqarolar jamoat muhokamasini o'tkazish tartibi, joyi va muddatlari haqida tanishtiriladi; 2-bosqichda aholi punkti bosh rejasining loyihasi bo'yicha jamoat muhokamalari o'tkaziladi; 3-bosqichda jamoat muhokamasi natijalari asosida jamoat fikri tahlil qilinadi; 4-bosqichda jamoat muhokamasi natijalari haqida ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet tarmog'i orqali aholi xabardor qilinadi.

Albatta, mazkur huquqiy mexanizmning belgilanishi ushbu sohada fuqarolar ishtirokini huquqiy jihatdan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Fikrimizcha, mazkur holatda jamoatchilik muhokamasi natijalarining inobatga olinishi, ushbu muhokamalar natijalari mutasaddi rahbarlar tomonidan ko'rib chiqilishi shartligini belgilab qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bir tomondan, fuqarolarning ma'muriy qarorlar qabul qilish irodasini ifoda etishning asosiy shakli sifatida jamoatchilik muhokamalarining roli, muayyan faoliyat turlari bo'yicha qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokinining xalqaro tamoyillariga mos keladi, boshqa tomondan, fuqarolar irodasini bunday ifoda etishning huquqiy oqibatlari to'g'risidagi masala hal qilinmay qolmoqda. Darhaqiqat, fuqarolarning jamoatchilik muhokamalarida bildirilgan fikri ijobiy ham yoki salbiy ham bo'lishi mumkin, obyektiv holatlarga asoslanishi yoki yuzaga kelgan muammoga subyektiv munosabatning natijasi bo'lishi ham mumkin.

Shaharlarni barqaror rivojlantirish muammolarini hal qilishda aholining ishtirok etish samaradorligi fuqarolarning tabiiy resurslardan foydalanuvchi hamda muhofaza tadbirlarining bevosita ishtirokchisi sifatida ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Shaharlarni rivojlantirishni rejalashtirishning dastlabki bosqichlarida aholining amalda ishtirok etmasligi, ushbu munosabatlar subyektlariga ma'lumot yetib bormasligi yoki ushbu ma'lumotlarning o'z vaqtida berilmaganligi, tomonlarning barqaror rivojlanishga mos kelmagan tarzda bir-birlari bilan muloqot qilishni istamasliklari, jamoatchilik ishtirokiga oid qonunchilik normalarining samaradorligini pasaytiradi va natijada ularning ijtimoiy yo'naltirilganlik holati rivojlanmaganligini ko'rsatadi.

Bunday sharoitda aholi yuqorida ko'rsatilgan qonunlar tomonidan berilgan huquqlarni amalga oshirish orqali muammoga o'z munosabatini bildirishga majbur (masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati bilan shug'ullanadigan ijtimoiy notijorat tashkilotlarini tuzish; atrof-muhit holati va uni muhofaza qilish choralari to'g'risida ma'lumot olish to'g'risida davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga murojaatlarni yuborish; atrof-muhitni muhofaza qilishga oid masalalar yuzasidan yig'ilishlar, mitinglar, namoyishlar, yurishlar o'tkazish, petitsiyalarga imzo to'plashda ishtirok etish, jamoat ekologik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha takliflar kiritish va uni o'tkazishda qatnashish, atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal qilishda hokimiyat organlariga yordam berish va h.k.). Biroq, bu yerda ham atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida subyektiv huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar mavjud.

So'nggi yillarda qonun hujjatlarida jamoatchilik ishtirokiga oid erishilgan aniq yutuqlardan biri bu jamoatchilik nazorati institutining takomillashuvi, jamoat ekologik nazorati inspektorlari maqomining mustahkamlanganligi bilan bog'liq.[3] Biroq, aholining huquqiy imkoniyatlaridan xabardorligi darajasi pastligi ushbu normalarning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Shaharlarning barqaror rivojlanishi, davlat va aholi, quruvchi (investor) va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda barqarorlikka erishish orqali, ishtirokchilar o'rtasidagi teng muloqot va sheriklik orqali hududni rivojlantirish masalalarini hal qilish maqsadga muvofiq.

Shaharlarni barqaror rivojlantirish masalalarini hal qilishda jamoatchilikning faol ishtirok etishi har bir fuqaroning ongini shahar hayotidagi teng element sifatida iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilish zarurati tomon yo'naltirishga imkon beradi. Fuqarolarning ekologik jihatdan barqaror shaharlarni

rivojlantirish masalalarini hal etishda ishtirok etishining haqiqiy taomillari va kafolatlarigina, “vaziyatga o‘z vaqtida ta’sir qilish” imkoniyati bilan sheriklik asosida yaratilgan bunday ishtirokning aniq tizimi, shaharlarda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida to‘g‘ri siyosat yuritishga imkon beradi.

Ta’kidlash joizki, atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to‘g‘risidagi konvensiyaga – Orxus konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi sohaga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishda asos vazifasini o‘tamoqda. [4]

Davlat organlarining shahar atrof-muhitini muhofaza qilishdagi mavqeyini mustahkamlash va nomarkazlashtirish sharoitida xalqaro ko‘rsatmalarda va Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2007-yil 20-apreldagi 21/3-sonli va 2009-yil 3-apreldagi 22/8-sonli BMT – aholi punktlari bo‘yicha Habitat rezolyutsiyalarida bayon etilgan barcha uchun nomarkazlashtirish va bazaviy xizmatlarga kirish xalqaro tamoyillarining Boshqaruv kengashi tomonidan qabul qilingan xalqaro ko‘rsatmalarda ko‘rsatilgan qoidalar muhim ahamiyat kasb etadi.[5]

1996-yildan beri xalqaro hamjamiyatning sa’y-harakatlari mahalliy davlat hokimiyati organlarining rolini kuchaytirish, shaharlarning barqaror rivojlanishi jarayonida ularning salohiyatini oshirishga qaratilgan. Mahalliy davlat hokimiyati organlari fuqarolarga yaqinroq bo‘lganligi sababli, respublika darajasidagi davlat boshqaruv organlariga nisbatan aholi punktlarining rivojlanishiga ko‘proq hissa qo‘shishlari kerak.

“Habitat II” kun tartibining (1996-y.) 177-bandiga binoan, aholi punktlarining barqaror rivojlanishiga “funksiyalarni samarali nomarkazlashtirish, siyosatni boshqarish, qonun chiqaruvchi hokimiyatni ta’minlash va oddiy fuqarolarga eng yaqin bo‘lgan va ularning manfaatlarini eng yaxshi tarzda himoya qiladigan mahalliy hokimiyat organlariga yetarli mablag‘lar ajratish” orqali erishish mumkin.[6] Keyinchalik ushbu pozitsiya Yangi ming yillikdagi shaharlar va boshqa aholi punktlari to‘g‘risidagi deklaratsiyada ham, Shaharlarni rivojlantirish yangi dasturida (Habitat III) ham qo‘llab-quvvatlandi.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish muammolariga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirgan holda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining roli xalq hokimiyatchiligining muhim vositasi sifatida asta-sekin mustahkamlanib bordi. O‘tgan yillar davomida o‘tkazilgan, shu jumladan ma’muriy-hududiy tuzilmani takomillashtirishga qaratilgan islohotlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi vakolatlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Shunday bo‘lsa-da, ta’kidlash lozimki, ekologiya sohasidagi asosiy qonun bo‘lgan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari ko‘rsatib o‘tilishi zarur. Fikrimizcha, ushbu Qonunni 10¹-modda bilan to‘ldirib, unda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlarini belgilash lozim. Kelgusida Ekologiya kodeksi qabul qilinganda ham fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlarini alohida moddada belgilash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ham aholi punktlarida atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq vakolatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, ularga xo'jalik va boshqa faoliyatlarni amalga oshirishda shovqin, tebranish, elektr, elektromagnit, magnit maydonlar va atrof-muhitga, shahar va qishloq aholi punktlari, dam olish joylari, yovvoyi hayvonlar va qushlarning yashash, jumladan ularni ko'paytirish joylari, tabiiy ekologik tizimlar va tabiiy landshaftlarga boshqa salbiy jismoniy ta'sirlarning oldini olish va yo'q qilish uchun zarur choralarni ko'rish bilan bog'liq vakolatni berish maqsadga muvofiq.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari shahar hududlarida yuqori sifatli atrof-muhitni ta'minlash jarayonida bir qator muhim faoliyat yo'nalishlarida ishtirok etishlari mumkin. Jumladan, shahar miqyosida ekologik monitoringni amalga oshirishda qatnashish, shaharlarda ekologik axborot siyosatini yuritish, jamoatchilik bilan uzviy aloqalarni yo'lga qo'yish va "bog'lovchi bo'g'in" vazifasini bajarish, davlat hokimiyati organlari bilan faol hamkorlik va sheriklikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, atrof-muhitga oid muammolarni shaharsozlik mexanizmlari orqali hal etish, xususan, hududiy rejalashtirish va zonalashtirish, hududlarni rivojlantirishni rejalashtirish, shaharsozlik siyosatini takomillashtirish hamda qulay, jozibador va innovatsion shahar muhitini yaratish orqali shaharlarni rivojlantirishni boshqarish dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, atrof-muhitni huquqiy muhofaza qilishning maxsus tamoyillari shahar ekologik muammolarini yagona tabiiy va ijtimoiy tizim sifatida kompleks o'rganishga asoslanadi. Ushbu tamoyillar ekologik-huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilariga, jumladan, fuqarolar, jamoat birlashmalari, qonun ijodkorligi subyektlari, shuningdek, huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga qaratilgan bo'lib, ular asosida shaharlarda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga qaratilgan aniq va tizimli huquqiy choralarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 27-maydagi 434-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.05.2019-y., 09/19/434/3189-son.
2. Хабриева Т.Я., Чиркин В.Е. Теория современной конституции. – М., 2005. – С. 171.
3. Декларация тысячелетия ООН. Принята резолюцией 55/2 Генеральной Ассамблеи ООН от 8 сентября 2000 г. // БМТнинг расмий веб-сайти – www.un.org
4. Утегенов О.Д. Экология соҳасида жамоатчилик назоратини ҳуқуқий таъминлашни такомиллаштириш: Юрид. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Тошкент: ТДЮУ, 2020. – 302 б.
5. Международные руководящие принципы децентрализации и доступа к базовым услугам для всех. ООН – Хабитат. 2009. // БМТнинг расмий веб-сайти – www.un.org
6. Повестка дня Хабитат Конференции ООН по населенным пунктам (Хабитат II). Стамбул, 3—14 июня 1996 г. // БМТнинг расмий веб-сайти – www.un.org

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).